DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-06-I3-71 Pages: 697-704

Oriental Journal of Philology

ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about

ABDULLA QODIRIY'S NOVEL "THE SCORPION FROM THE ALTAR" IN ARABIC

Oqila Sh. Sattorova
Teacher, Department of Arabic Language Translation Theory and Practice
Faculty of Translation
Uzbekistan State World Languages University
sattorova.oqila@mail.ru
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: realia, equivalence, adequate translation, "Mehrobdan Chayon", national mentality, author's style, character portrait, character speech, translator's skill.

Received: 08.05.26
Accepted: 09.05.26
Published: 10.05.26

Abstract: This article discusses the first translation of A. Qodiriy's novel "Mehrobdan Chayon" into Arabic. The study analyzes the translator's skill in word choice during the translation process, the rendering of nationally specific words in translation, and the reproduction of Uzbek national mentality in the Arabic translation. In this regard, several актуal issues of translation studies related to these aspects are examined.

ABDULLA QODIRIYNING "MEHROBDAN CHAYON" ROMANI ARAB TILIDA

Oqila.Sh.Sattorova
O'qituvchi
Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi
Tarjimonlik fakulteti
O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti
sattorova.oqila@mail.ru
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: realiya, muqobil, adekvat tarjima, "Mehrobdan chayon", milliy mentalitet, muallif uslubi, personaj portreti, personaj nutqi, tarjimon mahorati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada A.Qodiriyning "Mehrobdan Chayon" romanini ilk bor arab tiliga qilingan tarjimasi hususida fikr yuritiladi. Romanni tarjima qilishdagi tarjimonning so'z tanlash mahorati, milliy xos so'zlarning tarjimada berilishi, o'zbek milliy mentalitetini arabcha tarjimada qayta yaratilishi bilan bog'liq bo'lgan tarjimashunoslikning dolzarb masalari tahlil qilindi.

РОМАН АБДУЛЛЫ КАДЫРИ «СКОРПИОН ИЗ АЛТАРЯ» НА АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ

Окила Ш. Сатторова
Преподаватель кафедры теории и практики перевода арабского языка
Факультет переводоведения
Узбекский государственный университет мировых языков
sattorova.oqila@mail.ru
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: реалии, эквивалент, адекватный перевод, «Мехробдан чаён», национальный менталитет, авторский стиль, портрет персонажа, речь персонажа, мастерство переводчика.

Аннотация: В данной статье рассматривается первый перевод романа А. Кадыри «Мехробдан чаён» на арабский язык. Анализируется мастерство переводчика в выборе слов при переводе произведения, передача национально-специфической лексики, а также воссоздание узбекского национального менталитета в арабском переводе. В связи с этим рассматриваются актуальные вопросы переводоведения, связанные с данными аспектами.

Kirish. O‘zbek romanchiligining durdonalaridan biri A.Qodiriyning “Mehrobdan Chayon” asari 2024 yilda Alisher Navoiy jamoat fondi tashabussi bilan mahoratli tarjimon Said Mubashir Said Mahmud kosoniy tomonidan ilk bor arab tiliga o‘girilib Saudiya Arabistonining Ar-Riyot shahrida nashr ettirildi. Said Mahmud kosoniy yozuvchi va tarjimon sanalib, Otasi Said Mubashir kosoniy qalamiga mansub bo‘lgan “Bir umrdir darbadar mulki jahon kezmoqdaman” asarini 2021 yilda qo‘lyozma holatidan Toshkentdagi "hilol nashr" bosmaxonasida nashr qildirgan. Hamda, 2022 yilda bu kitob Said Mahmud kosoniy tomonidan arab tiliga tarjima qilinib, Saudiya Arabistonining Makka shahrida المكتبة المكية (Al-Makkiah bookshop) nashriyotida boshmadan chiqarilgan. Shu bilan birga Said Mahmud kosoniy 2025 yilda Abrauf Fitratning “Hind sayyohining bayonoti” asarini mahorat bilan arab tiliga tarjima qilib nashrga tayyorlagan. Hozirgi kunda malakali tarjimon Said Mahmud kosoniy Alisher Navoiyning “Mahbubu-l-qulub” asari tarjimasi ustida ish olib bormoqda

Yurtimizda tarjimonlik sohasini yanada rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-iyunda qabul qilingan “Badiiy tarjima sohasida Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotni ta’sis etish to‘g‘risida”gi (https://share.google/dKCJbnC9VkQcgcqSo) qaroriga muvofiq malakali tarjimon Said Mahmud kosoniy Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani arab tiliga tarjimasi uchun Muhammad

Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotning O‘zbek adabiyotining nasriy asarlaridan xorijiy tillarga tarjima yo‘nalishi g‘olibi bo‘ldi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan Chayon” romani va uning arab tilidagi tarjimasi "عقرب في المحرب" tadqiqot materilallari bo‘lib ular o‘zaro chog‘ishtirilib, qiyosiy va tasnifiy tahlil qilib o‘rganildi.

Natijalar. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani o‘zbek milliy mentaletetini o‘zida mujassam etuvchi maqollar, matallar, freziologik birliklar, miliy xos so‘zlar, o‘zbek xalqining urf-odatlari, milliy arxetektura bilan bog`liq so‘zlar, laqab va lavozimlar bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlar uchraydi.Ularni tarjimada qayta yaratish tarjimon zimmasidagi masuliyyatli vazifa sanaladi. Sababi, o‘zbek romanlarida xalqning milliy xarakteri, milliy kolorit bosh rejada turadi. Romanchiligimizning ilk va betakror namunalari sanalgan “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” asarlari mukammal uslubi va chuqur ijtimoiyligi bilan salkam yuz yildan beri millionlab kitobxon va yuzlab tadqiqotchilarni o‘ziga jalb etib keladi. Chunki XX asrda yaratilgan o‘zbek adabiyoti namunalarining hech birida milliy xos so‘zlar bunchalik yirik hajm va qamrovda qo‘llanilmagan. Shu nuqtai nazardan, ta’bir joiz bo‘lsa, Qodiriy romanlarini o‘zbek realiyalari galereyasi deb atash mumkin. (Hamidov, 2022, p. 29).

Darhaqiqat, A.Qodiriy asarlari o‘zbek tilini nihoyatda go‘zal va rangbarang ko‘rinishda ochib bergan. Ammo bu go‘zallikni tarjimada saqlab qolish tarjimon uchun katta masuliyyatdir. Negaki, bunda nafaqat tilni mukammal bilish, o‘zbek falklori urf-odatlari, qadriyyatlarini chuqur bilishning o‘zi ham yetarli emas. Yuqorida e`tirof etilganlardan tashqari muallif uslubining ham o‘ziga xosligi asarni naqadar cho‘qqiga olib chiqqan bo‘lsa, tarjimonni shu qadar murakkab vaziyyatga soladi.

Badiiy tarjima - tarjimaning o‘ziga xos turlaridan biri bo‘lib, u badiiy janr va uning kichik janrlarini tarjima tilidagi asarning badiiy detallariga, badiiylikning barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda, olib o‘tish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayon bo‘lib, quyidagi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi: asliyatning ijodiy uslubi, qayta ifodalash, realiya tarjimasining muammolari, sinonimlar tanlashdagi muammolar, maqol va matallar hamda frazeologizmlarga mos ekvivalentlar topish, urf-odat va analarni tarjimada saqlab qolish ,baddiy tasvir vositalari hamda personajlar nutqini tarjimada aks ettirish kabi qator vazifalarni o‘z ichiga oladi.

A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon”romani shu kunga qadar qator tillarga tarjima qilingan. 1964-yilda rus tiliga "Скорпион из алтаря" nomi bilan tarjima qilindi. O‘zbek tilidan tarjimani L.Blat va V.Smirnova amalga oshirgan. Tarjima Moskvada “Художественная литература” nashriyotida nashr etilgan.

Tarjimada asarning asosiy syujeti, personajlar xarakteri va tarixiy kontekst saqlangan bo‘lsa-da, o‘zbek xalqining madaniy realiyalari - diniy va urf-odatlarga oid terminlar

soddalashtirilgan yoki tushirib qoldirilgan (Ismailov, Sh. (1983). Artistic Translations of Uzbek Literature into Russian. Tashkent: Fan. pp. 145–146.(In Russian)

Bundan tashqari roman ozarbayzon, tatar, ingliz va xitoy tillariga ham tarjima qilingan. Romanning arab tilidagi tarjimasi haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, tarjima muvofaqiyyatli amalga oshirilgan.Tarjimon Said Mahmud kosoniy bilan suhbatda tarjimon shuni takidlaydiki: A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani eski o‘zbek shevasida yozilgan arab tilidagi so‘zlarda ham talaffuzda farqlar bor, ba`zi o‘rinlarda forscha so‘zlar va tochikcha shevalar uchraydi. Men bularning baridan xabardorligim arab tilida bu so‘zlarning ekvilalentini tanlashimda asqotdi.

A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida milliylikni ifodalovchi maqol, matallar frozeologizmlar realiyalar bilan birqatorda milliy urf odatlar bilan bog ‘liq holatlar ham uchaydi. Masalan o‘zbeklarda ikki kishi uchrashganda yoshi kichik odam birinchi bo‘lib salom berish ananasi bor. Bunday qadriyyat arablar uchun mutlaqo begonadir. Arablarda tashqaridan kelgan odam yoshidan qadiy nazar ichkaridagilarga salom beradi. A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida haram xodimalaridan biri Gulshanbonuning Solih maxdumning uyiga kelish sahnasi mavjud:

“Ayvonda salla o'rab ovora bo'lg'an maxdum yo'lakdan "zalfa" sharpasini olib, tanchada sanama tikib o'lturg'uchi Ra'noga: - Yo'lakda xotin kishi ko'rinadi, xabar ol-chi, bolam, - dedi. Ra'no yo'lakda yarmisini ko'rsatib yondama turgan xotinning oldiga bordi. - Assalomu alaykum... Xotin saloomga javob berib,yo‘lak tomonga o‘tdi va Ra`noni o‘z oldig‘a imladi. Yasamol, po'stun kiygan bu xotin Ra'noning diqqatini o'ziga jalb etdi. Borib ko'rishdi.

-Nasibbekning hovlilari shu emasmi, otin qiz?

-Yo'q, -deb kuldi Ra'no, - biz Nasibbekning qo'shnisimiz.

Xotin boshidan oyoq Ra'noga qarab chiqdi:

- Sho'rim qursin, - deb qo'l silqidi xotin, - men adashib sizlarniki ovora qilibman. Kezi kelganda tanishib qo'yganning aybi yo'q, bu kimning havlisi?

- Solih maxdumning.

-Men adashmay ketay, juda uyat bo'libdi-da, hali men maxdum pochchamning havlilariga kirdimmi... Siz kimlar?

-Men... qizlari.

-Ko ‘p yashang,ismingiz?

-Ra`no.. Qani,bu yoqqa.

-Rahmat Ra`noxon.. ”[MCh 196-197]

بينما صالح منهمك في لف عمامته، لمح امرأة عند الباب، فقال لرنا الجالسة على الصندل تخيط الكوفية:

- يبدو أن هناك امرأة عند الباب يا رنا، اذهبي واستطلعي الخير.

قامت رنا متوجهة نحو الباب، فرأت امرأة تقف موارية، فسلمت عليها:

- السلام عليكم.

وجدت المرأة الباب وعليها جبة صوف فاخرة، وأمعنت النظر جيدًا في رنا، فردت السلام وقالت:

-أليست هذه دار "نسيب بيك" يا ابنتي؟

تبسمت رنا، وقالت:

* لا يا سيدتي... ولكنه جارنا.

نظرت المرأة إلى رنا من رأسها إلى أخمص قدميها، ثم قالت:

- يا ويحي... لقد أزعجتكم يا ابنتي... ولكنها فرصة لكي أتعرف عليكم، لمن هذه الدار يا ابنتي؟

- إنها دار صالح مخدوم.

- هههه ، إذن لقد دخلت دار مولاي صالح، كم أنا محرجة... من تكونين يا ابنتي؟

أنا.... ابنته يا سيدتي.

أطال الله في عمرك، وما اسمك؟

اسمي رنا... هيا تفضلي إلى الداخل؟

شكراً لك يا رنا خان..

(ع.ف.م،245-246)

Yuqoridagi sahnada o‘zbek an`ana va urf-odatlariga muvofiq Ra`no Gulshanbonuga birinchilardan salom berishi, milliy qadriyyatlarimizning kichiklar kattalarga salom berishining go‘zal ko`rinishi bo‘lsada, arablarda ozchilik ko‘pchilikka, tashqaridan kirib kelgan kishi ichkaridagilarga salom berish ananasi bor. Shu nuqtai nazardan Ra`noning uy egasi bo‘la turib, tashrif buyurgan begona ayolga birinchi salom berishi arab madaniyatiga notanishligi sababli, tarjimon shu jarayonni tarjimada izoh bilan kiritgan.

Xuddi shu kabi ko‘z ilg‘amas jihatlarni esa, faqatgina mohir tarjimon payqashi mumkin.Demak tarjima jarayoni faqatgina leksik jarayon emas balki, urf odatlar va qadriyatlar jarayoni hamdir.

Bundan tashqari romanda frazeologizmlar ham kerakli ekvivalentlar bilan almashtirilgan. Makol va frazeologizmlar bir tildan boshqa tilga tarjima kilinayotganda xar kanday xolda ham ularning obrazli asoslari aynan muvofiq keladigan bir variant bilangina tarjima qilish ba`zan sun`iylikka olib kelishi mumkin. Har qanday sharoitda ham bunday birliklarning tarjima tilidagi ekvivalentlari va mukobil variantlari bilan ko‘r-ko‘rona almashtiraverilishi uslub-ning galizlashishi, tarjima tilining chegaralanib, bir xil qolipdagi siyqasi chikkan makol, matal va idiomalarning uzluksiz takrorlanishiga olib kelishi olimlar tomonidan alohida ta’kidlanadi. (Sattorova, 2025, pp. 575–581.)

Tarjimashunos olim G`.Salomov bundan salkam yarim asr oldin frazeologizmlar tarjimasida uchta prinsip asos bo‘lishini ko‘rsatganlar: “Maqol, matal va idiomalar tarjimasida uch prinsip hukm suradi:

1. Asl nusxadagi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent qidirib topish;

2. Asar o‘girilayotgan tildan monand muqobil variant topib qo‘yish;

Frazeologizmni aynan, so‘zma-so‘z tarjima qilish. Har uchala hol ham uchramagan taqdirda tarjimon ularning umumiy ma’nosini aks ettirish bilan kifoyalanishga majbur bo‘ladi”. (Salomov, G. (1983). Fundamentals of Translation Theory. Tashkent: O‘qituvchi. p. 120.(in uzbek)

3. Quydagi misolimiz tarjimon maqollar tarjima qilishning birinchi prinspidan foydalanish imkoniyati bo‘lsada, uchinchi prinspni avzal ko‘rgan.

“Habba, - dedi maxdum tamom ochilg‘an qiyofada, - go‘daklik lozim emas, jabonot ko‘p mazmun sufat, “Osilsang ham baland dorg‘a osil” maqoli ko‘p pirhikmat so‘z.[MCh 42]

قال صالح مغموم، وقد انفرجت أساريره:

-إذن لا داعي للخوف والجبن يا بني، والمثل يقول: "إذا كنتَ ستُشنق، فاختر أعلى المشانق."

ع.ف.م،67

Ushbu parchada “ Osilsang baland dorga osil” o‘zbek maqoli garchi uning arab tilida الإقدام نصف النجاح (Jur’at (jasorat) — muvaffaqiyatning yarmidir.), لا تحزن على أمر قد انتهى، وابدأ حياة جديدة بشجاعة (Yuz bergan narsaga achinma, yangi hayotni jasorat bilan boshla!) shakllaridagi ekvivalentlari bor bo‘lsada bu maqol arab tiliga so‘zma -so‘z tarjima qilingan.Tarjimonning bunday yo‘l tutgani arab kitobxoni uchun tushunarli ekanligini inobatga olib, aytish joizki, bu bilan tarjimon o‘zbek xalq maqolini arab madaniyatiga tanishtirgan. Ammo maqolni o‘zbek maqoli ekanligi izoh qilib berilganida maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Maqol, matal, naql va iboralar yillar osha tildan tilga ko‘chib, millatning madaniy merosiga aylangan xalq og‘zaki ijodi namunalaridir. “Til, falsafa va badiiy ijodning o‘ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo‘lgan bir janridir”.(Zhenxin, 2023, pp. 15–16)

Shunday ekan maqollar milliy o‘ziga xoslikning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Maqollar xalq dunyoqarashi, ruhiyatini chuqurroq anglashga imkon beruvchi milliy-madaniy birliklardir.

A. Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asari tarjimalari hususita fikr yuritar ekanmiz, milliylikni o‘zida yaqqol namoyon etuvchi maqollar va ularning tarjimasiga to‘xtalmay ketishning iloji yo‘q. O‘zbek tilidagi mashhur maqollardan biri, “Chumchuqdan qo‘rqqan tariq ekmaydi” maqoli rus, turk, hamda arab tilliga qilingan tarjimalari qiyoslanganda , rus va turk tillaridagi tarjima so‘zma-so‘z qilingan. faqat arabcha tarjimada birgina tariq so‘zi bug‘doy so’ziga o‘zgartirilgan xolos.

Ushbu maqol ikkala tilda ham so'zma-so'z berilgan va bu xususida tanqidiy ilmiy fikr bildirish o'rinsiz. Zero, adibning o'zi ta'kidlagani-dek, “...ushbuning ma'nosi turkchada ham bor”. (Afsuski, hozirgi o'zbek tilida esa maqolning boshqa deyarli qo'llanmay qo‘ygan) Rus tilida esa maqolning “Волков бояться — в лес не ходить.” “Bo'ridan qo'rqqan Urmonga bormas” degan muqobili bor. Biroq, rus tarjimonlari sof o'zbekcha aytiladigan maqolni sof ruscha maqolga aylantirib qo'ysalar, u holda milliylik saqlanmay qolgan bo'lar edi (Xuddi shunindek, ruscha asarlardagi "Волков бояться — в лес не ходить." “Volkov boyat'sya – v lesne xodit'” maqolini ham tarjimada sof o'zbekcha “Cho'mchuqdan qo'rqqan tariq ekmaydi” maqoliga vositasiz berish ruslarga xos milliylikni saqlash tamoyiliga to'g'ri kelmagan bo'lardi). Demak, har bir xalqning badiiy tafakkurida aynan bir xil vaziyatni turlicha talqin qilishni to'xtatish hisoblanadi va bu narsa muayyan millatning olamini til nuqtai nazaridan idroq qilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. (Hamidov, Kh. (2022). Uzbek Novellas and Novels in the Turkish Language. Monograph. Tashkent. p. 176.(In uzbek)

Parchaning arabcha tarjimasi quydagicha “Chunonchi ushbuning misoli turkiyda ham bor: “Chumchuqdan qo‘rqib, tariq ekmagan”, deb qo‘rqoq kishilarni masxara qiladilar.”[MCh 40]

أو لم تسمع بالمثل الذي قول: "خاف من العصافير، ولم يزرع الحنطة؟" هذا المثل يطلق للسخرية من ضعف القلوب.

"ع.ف.م،66

Yuqoridagi maqol arablarda ham mavjud ekanligi sababidan tarjimon uni tarjimada aks ettirishda qiynalmagan. Faqat maqolning arabcha shakilida “chumchuqlardan qo’rqqan bug`doy ekmaydi” deb berilgan.

“Mehrobdan chayon” romaning asliyat tilida arab tilidagi so‘zlar iboralar hatto maqollarning uchrashi arab va o‘zbek madaniyati o‘sha davrda naqadar yaqin ekanligini isbotidir. Keyingi beriladigan parchada ham bu nasa yaqqol ko‘zga tashlanadi:

“ Bu oila Mohlar oyimning taklifini ma`almamniniyat qabul etdi. Chunki «o‘xshatmay uchratmas» degandek narigi taraf ham Mohlar oyimning bittasi edi.”[MCh,12]

"وافقت هذه الأسرة على طلب ماهلر آيم، فهم كانوا مثلها تماما ، وكما يقول المثل : الطيور على أشكالها تقع. "

]ع.ف.م30 [

Asliyatda mavjud bo‘lgan “o‘xshatmasdan uchratmas ” maqolini tarjimon arab tilidagi “الطيور على أشكالها تقع” (Qushlar o‘z o‘xshashlariga qo ‘nadilar) muqobili bilan bergan. Jumlasidagi “ma`almamniyat” (mamniyat bilan)so`zi aynan arab tilidagi "مع"(bilan birga)predlogi hamda "ممنونية" so‘zlari orqali hosil qilingan bo‘lsada tarjimada berilmagan. Balki, buning sababi hozirgi arab tili nutqida bu birikmaning qo‘llanmasligidir. Biroq, bu birikmani“ بِكُلِّ امْتِنَانٍ”,(mamnuniyat bilan) “ بِكُلِّ سُرُورٍ” (quvonch bilan) kabi ekvivalentlar bilan berish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Xulosa. Tarjima bu bir til meyyorlari orqali ifodalab berilgan milliylikni boshqa til orqali ifodalash degani tur va xillari ko‘p. Ular orasida badiiy tarjima o‘zining qiyinligi, talablarining murakkabligi bilan alohida ajralib turadi. Badiiy tarjimada mutarjim muallif bilan huquq talashar darajada maqomga ega bo‘ladi. Ma’lum bo‘ladiki, shakl va mazmun birligi badiiylikning zaruriy sharti, badiiy asar yaxlitligi, mukammalligining qat’iy talabidir. Chunki fikr o‘z qolipi bilan fikr. Qolip o‘zgarishi natijasida fikrda ham ozmi-ko‘pmi o‘zgarish yuz berishi tabiiy.

Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan Chayon” asari arabcha variamtida tarjimon imkon qadar baddiylikni saqlab qolishga milliylik ruhiyatini asliyat kabi berishga harakat qilgan. O‘zbek milliy mentaletetini ochib beruvchi mukammal romanlardan biri “Mehrobdan chayon” romanida jami qiriq ikkita maqol mavjud bo‘lib , ularning aksariyyaati arab tiliga muqobil variant orqali ifodalangan.

Qolaversa, asliyat tilidagi urf odatlar va ananalar tarjima tiliga kerakli joyda izohlar bilan birda sinchkovlik bilan bajarilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. [MCh] Novel “The Scorpion from the Altar”(In uzbek)
2. [ع.ف.م] Novel “The Scorpion from the Altar”(In arabic)
3. Da Zhenxin. (2023). A Linguistic Study of Uzbek and Chinese Proverbs. PhD Dissertation in Philology. Tashkent. pp. 15–16.(in China)
4. Hamidov, Kh. (2022). Uzbek Novellas and Novels in the Turkish Language. Tashkent: Effect-D. p. 29.(In Uzbek)
5. Hamidov, Kh. (2022). Uzbek Novellas and Novels in the Turkish Language. Monograph. Tashkent. p. 176. (in Uzbek)
6. Hamidov, X. (2023). Factors that Complicate the Translation of Abdulla Qodiriy’s Works. ORIENSS, 20. URL: https://share.google/iM0vaitNljSR5ihRI (In uzbek)
7. Ismailov, Sh. (1983). Artistic Translations of Uzbek Literature into Russian. Tashkent: Fan. pp. 145–146.(In Russian)
8. Lex.uz (https://share.google/dKCJbnC9VkQcgcqSo)
9. Salomov, G. (1983). Fundamentals of Translation Theory. Tashkent: O‘qituvchi. p. 120.(in uzbek)
10. Sattorova, O. (2025). Reflection of Arabic Folk Proverbs in Uzbek Translation. Sharq Philology Journal, 5(03), 575-581.
https://supportscience.uz/index.php/ojp/article/view/2089.